ISNN:2181-1296



SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА

SAMARKAND STATE UNIVERSITY NAMED AFTER SHAROF RASHIDOV

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК
SCIENTIFIC JOURNAL

GUMANITAR FANLAR SERIYASI

№ 2/2 (138)
2023

ISSN 2181-1296

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК SCIENTIFIC JOURNAL

2023-yil, 2-son 2-seriya (138) GUMANITAR FANLAR SERIYASI

Tarix, Falsafa, Filologiya, Huquqshunoslik, Pedagogika, O‘qitish metodikasi, Psixologiya, Sotsiologiya, Siyosiy fanlar

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR **R. I. XALMURADOV, t.f.d., professor**
BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARLARI: **H.A. XUSHVAQTOV, f-m.f.d., dotsent A. M. NASIMOV, t.f.d., professor**

TAHRIRIYAT KENGASHI:

S. S. G‘ULOMOV	- O‘zFA akademigi
M.Q. MUXIDDINOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
SH.A.HASANOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
S.A.KARIMOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
N. Sh. SHODIEV	- ped.f.d., professor (SamDU)
M.X.LUTFULLAYEV	- ped.f.d., professor (SamDU)
HIROAKI HUZIIE	- Osaka universiteti professori (Yaponiya)
A.B.PARDAYEV	- fil.f.d., professor (SamDU)
SH.Y.ZIYODOV	- fil.f.d., dotsent (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi)
J.Y.YAXSHILIKOV	- f.f.d., professor (SamDU)
SH.SH.NEGMATOVA	- f.f.d., professor (SamDU)
N.U.ARABOV	- i.f.d., professor (SamDU)
B.E.ERGASHEV	- t. f. d., professor (SamDU)
B.S.G‘OYIBOV	- t.f.d., (SamDU)
D.Q.USMONOVA	- i.f.n., dotsent (SamDU)
F.SH.RASHIDOVA	- t.f.f.d., dotsent (SamDU)
O.S.YUSUPOVA	- f.f.n., dotsent (SamDU)
O.S.QODIROV	- p.f.n., dotsent (SamDU)
S.I.MUXIDDINOV	- t.f.f.d., (SamDU)

Obuna indeksi – yakka tartibdagi obunachilar uchun **- 5583,**
tashkilot, korxonalar uchun **- 5584**

MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

MUNDARIJA	
Atayeva G.R. *O‘smirlar mehnat faoliyatini oila va maktabda o‘zaro muvofiqlashtirishning psixologik samaradorligi……*	4-8
Yakubova M. *Nemis sayohatchisi xans-xermann fon shvaynitsning esdaliklaridan samarqand tarixiga oid ayrim lavhalar……*	9-14
Marufov E.U. *Talabalarning ingliz tili fonetik kompetensiyasini rivojlantirishdagi qiyinchiliklar……*	15-20
Aliyev O.O. *O‘zbekistonda axborot xavfsizligi siyosatining huquqiy asoslarini shakllanishi va rivojlanishi*	21-29
Mirzayev R.I., Ibodullayev S.R. *Korrupsiya va uning namoyon bo’lish shakllari……*	30-34
Rahimova G., Kiyamova S. *Umumta’lim maktablarida o‘quvchilarga Alisher Navoiy hayoti va ijodiini o‘rgatishda “Muammoli ta’lim” metodidan foydalanishning ahamiyati……*	35-42
Abdullayeva G.R. *Boshlang‘ich sinf tabiatshunoslik darslarini adekvat modellashtirish tizimini takomillashtirish*	43-47
Ochilova G.U. *Some cases of transmission of kinship terms in uzbek and english……*	48-52
Кадымова Д.Р., Рахмонкулова Ш.О. *Особенности реализация мотива сна в русской и зарубежной литературы (На примере произведений эпохи античности и средневековья, А.С. Пушкина «Евгения Онегина», И. А. «Обломова» Гончарова И «Преступления и наказания» Ф. М. Достоевского)……*	53-60
Radjabova D.N. *Rossiya sharqshunosligi ilmiy maktabi va o’rta osiyo tarixi masalalarining o’rganilishi……*	61-65
Мамасолиев И.Ф., Усманова Н.К. *Оригинальность баллад в.а. жуковского в русской словесности……*	66-71
Xayriyev I. *Aql, hissiyot va iroda integratsiyasi……*	72-76
Kenjayeva M.A. *Ona tili fanini o`qitishda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishda ta’lim exnologiyalardan foydalanish……*	77-81
Kuldashev M., Saidov U. *Jamoat xavfsizligini ta’minlashda yo‘l-transport hodisalarini oldini olishning o‘rni……*	82-86
Uzoqov M.F. *Attraktiv munosabatlarning o‘rni va pedagogik taxlili hamda uni hozirgi bosqichda maktabgacha ta’lim tizimida qo‘llash xususiyatlari……*	87-91
Xasanova M.N. *Elektron platforma vositasida muhandislik grafikasi fanini o‘qitishda talabalarning grafik ishlari sifatini rivojlantirishning pedogogik tavsifi……*	92-96
Аллаярова Н.Я. *Роль образовательных компетенций в развитии гендерно-равноправного мышления учащихся……*	97-101

Негматова Н.Н. *Принцип учета особенностей родного языка учащихся при обучении русскому языку в полиэтнической среде, методы и их классификация*……	102-106
Панжиева Н.Н. *Роль и значение развития навыков критического мышления у будущих учителей информатики* ……	107-116
Усманова Н.К., Сайфиддинова М. *«Мир детства» в философско-художественном и идейном воплощении в творчестве А.Платонова*……	117-122
Turniyazova R.B. *Emotional causation*……	123-128
F.F.Xatamov *Huquqning regulyativ funksiyasi va shaxs mas'ulligi*……	129-132
Xashimov Sh.J. *Milliy turizm va o'zbekistonning xalqaro imidji yuksalishining ijtimoiy-falsafiy masalalari*…….	133-137
Xushmurodova Sh.Sh. *Impact of bilingualism on third language acquisition and bilingual teaching*……	138-146
Mustafayeva M.SH. *Aleksitimiya fenomeni va uning namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari*……	147-151
Кадымова Д.Р., Ибрагимова Э.О. *Роль женщины и ее и судьба в произведении Л.Н.Толстого «анна каренина» и «госпожа бовари» .Флобера*……	152-158
Xoliqulov A.Y. *Ilk o'rta asrlar sug'dda bozorlar taraqqiyoti*……	159-163
Azizkulov A., To'g'izov N. *Boburiylar saltanatida ta'lim tizimi*……	164-168
Baysariyeva Ch.U. *Elektron ta'lim resurslari (etr) yordamida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish usullari, shakllari va vositalari*……	169-175
Amonturdiyeva Sh.R. *Diniy matnlarda mustaqil so'z turkumlarining ifodalanishi*……	176-179
Mustafayev Sh.N. *O'zbekiston oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalashning artpedagogik asoslari*……	180-184
Rustamova Sh.Sh. *Investigating communicative competence as a vital of pedagogical category*……	185-189
Jumanov Sh. *Ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi faoliyatining funksional pedagogik tahlili*.....	190-194
Tuxtayeva Sh.M. *Bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilariga matematika darslarida integratsiyalashgan ta'limni tashkillashtirish haqida*.....	195-200
Mualliflarga	

UO‘K:378(575.1) **DOI:** https://doi.org/10.59251/2181-1296.2023.v2.138.2.2218

O‘ZBEKISTON OLIY TA’LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYALASHNING ARTPEDAGOGIK ASOSLARI

Sh.N.Mustafaev
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Kattaqo’rg’on filiali

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada oliy pedagogik ta’limda artpedagogika va art-terapiyaning innovatsion intizomini joriy etish O‘zbekiston oliy ta’lim tizimini modernizatsiyalashning artpedagogik asoslarini nazariy tadqiq qilish natijasida artpedagogikaning xorijiy tajribasi misolida ta’limning barcha yo‘nalishlari jarayonida san’at elementlarini integrativ qo‘llashning ilmiy-amaliy negizlari haqida fikr yuritiladi.

Tayanch so‘zlar: modernizatsiya, artpedagogika, innovatsiya, deviantlik, art-terapiya, badiiy фаолият, когнитивист, катарсис. компенсатор, реципиент.

Модернизации системы высшего образования в Узбекистане на основе арт-педагогике

Аннотация. В данной научной статье рассматриваются вопросы, связанные с внедрением инновационных дисциплин, как арт-педагогика и арт-терапия в высших учебных заведениях, преведены результаты теоретического исследования модернизации системы высшего образования Узбекистана на основе арт-педагогики, на примере зарубежного опыта данной сферы, интегративное использование элементов искусства в процессе всех направлений образования, рассмотрены научно-практические основы применения.

Ключевые слова: модернизация, арт-педагогика, инновации, девиантность, арт-терапия, художественная деятельность, когнитивист, катарсис. компенсатор, реципиент.

Art Pedagogical basis of modernization of higher education system in Uzbekistan

Abstract. This scientific article discusses issues related to the introduction of innovative disciplines, such as art pedagogy and art therapy in higher educational institutions, presents the results of a theoretical study of the modernization of the higher education system of Uzbekistan based on art pedagogy, using the example of foreign experience in this area, integrative use elements of art in the process of all areas of education, the scientific and practical foundations of application are considered.

Keywords: modernization, art pedagogy, innovation, deviance, art therapy, artistic activity, cognitivist, catharsis. compensator, recipient.

Bugungi kunda yangi O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida izchil zamonaviylashuv - modernizatsion o‘zgarishlar sodir bermoqda va ular tizimli xususiyat kasb etmoqda. Bu o‘zgarishlar pedagogik tizimlarning o‘zaro ta’siri, an’anaviy ta’lim tizimini to‘ldiruvchi, ba’zan esa uni isloh qiluvchi innovatsion pedagogik texnologiyalardan amaliyotda foydalanishga qaratilgan. Jahon iqtisodiy makoniga tobora chuqur kirib borayotgan, integratsiyalashayotgan O‘zbekiston Respublikasi o‘z yoshlarini raqobatbardosh mutaxassis, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega, ijodkor shaxslarni tarbiyalashi kerak. Buning uchun esa, talaba yoshlarni madaniy va ijodiy shaxslar sifatida rivojlantirish uchun samarali texnologiyalar ishlab chiqilishi zarur.

Bunday vaziyatda oliy pedagogik ta’limda artpedagogika va art-terapiyaning innovatsion intizomini joriy etish ushbu muammoning zarur yechimlarini ishlab chiqish va sinab ko‘rishga yordam beradi. Artpedagogika pedagogika, estetika, san’atshunoslik, psixologiya, milliy g‘oya, madaniyatshunoslik va ijtimoiy-madaniy faoliyat kabi fanlarning birlashuvida shakllangan.

Jahon artpedagogik tizimlari shaxsni rivojlantirishga qaratilgan texnologik jarayonlar, ijtimoiy-madaniy faoliyat kategoriyalari integratsiyalashuvi asosida muntazam takomillashtirib borilmoqda. Globallashuv sharoitida artpedagogikaning yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, g‘oyaviy-estetik immunitetni rivojlantirishga yo‘naltirilgan mexanizmlarning “Pop-art”, “Pop-musiqa”, “Kitch”, “Starizm” kabi deviantlik holatlarni oldini olishdagi ahamiyati ortib bormoqda. Bu

esa shaxsni ma’naviy jihatdan tarbiyalash, mafkuraviy sog‘lomlashtirish, madaniy turmush tarzini muqobillashtirishga xizmat qilmoqda.

XX asr oxirlaridan boshlab pedagogika izoterapiya doirasida art-terapiya imkoniyatlarini alohida e’tibor bilan o‘rganib kelmoqda. Bunga misol qilib, Rossiya art-terapiya maktabining asoschisi А.И.Корытинning "Bolalar va o‘smirlarning art-terapiyasi" kitobida art-terapiya atamasiga berilgan ta’rif mazmunini keltirish mumkin. Olim artterapiyaga “Mijozning vizual faoliyati va psixoterapevtik munosabatlar kontekstida qo‘llaniladigan va turli xil jismoniy nogiron, hissiy va ruhiy kasalliklari bo‘lgan shaxslarni davolash, psixokorreksiya, psixoprofilaktika, reabilitatsiya va o‘qitish maqsadida ishlatiladigan psixologik ta’sir usullari to‘plami"[1-99.b.], degan ta’rifni beradi.

Shuni aytish kerakki, uzoq vaqt davomida art-terapiya atamasining ta’rifi ta’lim tizimiga singib keta olmadi. Biroq, keyinchalik, A.E.Taranovaning tadqiqotlari xulosalariga ko‘ra, yoshlar bilan ishlash amaliyoti, tajribasining to‘planishi natijasida "art-terapiya" tushunchasi negizidan "art-terapiya" va "art pedagogika"ning ajralib chiqishi sodir bo‘ldi. Shu paytdan boshlab art pedagogika san’at ta’limida mustaqil yo‘nalish sifatida "hayotga yo‘llanma", huquq oldi, deb hisoblanadi.[2]

Art-pedagogika nafaqat san’at ta’limini, balki shakllanayotgan shaxsni korreksion-rivojlantirish jarayonining barcha tarkibiy qismlarini san’at vositasida ko‘rib chiqish va hal qilish imkonini beradi. Korreksion ishlarda san’atning qanday muhim rol o‘ynashini xorijiy pedagogika vakillari E.Segen, J.Demor, O.Dekroli[3], shuningdek, Mustaqil davlat hamdo‘stligi mamlakatlarida maxsus pedagogikaning turli yo‘nalishlari bo‘yicha ijod qilgan olimlar L.S.Vigotskiy, A.I.Graborov, E.A.Ekzxanova, T.S.Komarova [4-280.b.] va boshqalar o‘z tadqiqotlarida etarli dalillar bilan isbotlab berishgan. Ular bolalarning badiiy faoliyati ularning sensor rivojlanishini ta’minlaydi, ishlab chiqarish faoliyatining motivatsion va ehtiyoj unsurlarini tashkil etadi. Idrok, ixtiyoriy diqqat, tasavvur, nutq, tasviriy vosita qobiliyatlar, qo‘llar va muloqotning rivojlanishiga yordam beradi. San’at asarlarini idrok etish yoqimli taassurotlarni yuzaga keltirib, ularni ijobiy his-tuyg‘ularga aylantirishga yordam beradi. Badiiy ijod obrazlari boshqa vositalar orqali anglab bo‘lmaydigan, beixtiyor kechuvchi jarayonlarni, jumladan, qo‘rquvlarni, ichki ziddiyatlarni va bolalik xotiralarini aks ettirish imkoniyatlarini yaratadi.

Badiiy faoliyat mahsuliga art pedagogikada alohida o‘rin beriladi. Masalan, bolalar chizgan chizmalarga avvalo, bola shaxsining rivoji, uning dunyoga bo‘lgan munosabatining ramziy ifodasi sifatida qaraladi. Shu munosabat bilan bolalar chizmasida bolaning aqliy rivojlanish darajasi va chizmachilik texnikasini egallash darajasini aks ettiruvchi xususiyatlarni, bir tomondan, shaxsiy xususiyatlarni aks ettiruvchi xususiyatlarni alohida ajratib ko‘rsatish juda muhimdir.

Artpedagogika Evropa Ittifoqi, AQSh pedagogik amaliyotida keng quloch yoyib, rivojlangan bo‘lsa-da, MDH mamlakatlariga endi kirib kelmoqda. Bu borada tadqiqotchilar artpedagogikaning shakllanish bosqichida ekanligini, umumta’lim va qo‘shimcha ta’lim tizimida o‘z o‘rnini egallaganligini, oliy ta’limga endi kirib kelayotganini qayd qiladilar. Shu ma’noda artpedagogikaning shakllanishida tadqiqotchilardan R.A.Verxovodova, R.A.Galustovalarning xulosalarini keltirish mumkin. Olimlarning ta’rifiga ko‘ra "artpedagogika talaba shaxsiga samarali ta’sir ko‘rsatish maqsadida ta’lim-tarbiya jarayonida san’at turlarini integrativ qo‘llashga asoslangan ilmiy-pedagogik yo‘nalishdir"[5-15-18.b.].

Yuqorida qayd etilgan tadqiqotchi L.D.Lebedevaning ta’limda badiiy terapiyadan foydalanishga bag‘ishlangan asarlarida "terapiya" tushunchasi nafaqat "davolash", balki "parvarish qilish", deb ham talqin qilinadi. Shuning uchun ham muallif amaliy psixologiya, psixoterapiya va art-terapiya sohasida maxsus tayyorgarlikka ega bo‘lmagan o‘qituvchilar va ta’lim psixologlari tomonidan art-terapiyadan foydalanishni ma’qul deb hisoblaydi. L.D.Lebedevaning yozishicha, "art terapiya" iborasi ilmiy-pedagogik ma’noda badiiy faoliyat orqali shaxs, guruh yoki jamoaning hissiy farovonligi va psixologik salomatligiga daxldor bo‘lishni nazarda tutadi. "Muallif ta’lim tizimidagi shaxsiyat muammolarini, jumladan, "disgarmoniya", "hissiy rivojlanishdagi qiyinchiliklar", impulsivlik, tashvish, qo‘rquv, tajovuz, hissiy inkor etish tajribasi, yolg‘izlik, depressiya, noto‘g‘ri xulq-atvor, shaxslararo va oilaviy munosabatlarda nizolar, boshqalarga bo‘lgan dushmanlik munosabatlarini bartaraf etishni artterapiya bilan bog‘lab tushuntiradi[6-320.b.]

Zamonaviy tadqiqotlarda artpedagogikaning juda muhim jihati ta’kidlanadi: artpedagogika turli toifadagi talaba, o‘quvchilar bilan ishlash imkonini beradi. Artpedagogika muammolari bo‘lgan bolalar bilan ishlashdan doirasidan tashqariga chiqadi, lekin shu bilan birga badiiy tarbiya va estetik tarbiya sohalarini takrorlamaydi. Boshqacha qilib aytganda, "artpedagogika" tushunchasining mazmuni faqat muammolari bo‘lgan bolalarning maxsus badiiy tayyorgarligini ham o‘z ichiga olmasligi, rasm chizish malakasini o‘rgatish art-pedagogik faoliyat mohiyatini kamaytirmagan holda shaxsning ijtimoiy moslashuvi asoslarini shakllantirishni madaniyat va san’at vositasida amalga oshirishning keng va boy imkoniyatlariga ega.

Artpedagogika yaxshi va samarali ta’lim va tarbiyaga yordam beruvchi vositalar, metod va texnologiyalarni o‘z ichiga olganligi sababli, uning vazifalariga ijobiy, motivli ta’lim va tarbiya jarayonini hamda shaxsiy rivojlanish uchun shart-sharoitlar yaratish ham kiradi. Ushbu vazifalarni hal etish oliy ta’lim muassasalarida talabalarning hayotiy resurslarini anglash va faollashtirish; ijodiy salohiyatini rivojlantirish va faollashtirish; o‘z-o‘zini tartibga solish ko‘nikmalarini o‘rgatish; muloqot ko‘nikmalarini o‘rgatish; idrok sohasini rivojlantirish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Yuqoridagilarni jamlab shuni ishonch bilan aytish mumkinki, art pedagogika jamiyatda, oliy ta’lim muassasasi jamoasida ijobiy ijtimoiy ma’naviy muhitni yaratish uchun ulkan salohiyatga ega. Artpedagogika va art terapiya san’at va badiiy faoliyat orqali korreksiya, tashxis qo‘yish, oldini olish, shuningdek, bolalarning ijtimoiy, psixologik va kasbiy moslashuvi buzilishlarining oldini olish funksiyasiga ega. Zero o‘smir, talabaning emotsional holatiga turli badiiy materiallar bilan ishlashning ta’sir ko‘rsatishi haqida ilmiy xulosalarga kelingan. Talabaning emotsional holatini yaxshilashda badiiy materiallarning ta’sirini o‘rganish davom ettirilmoqda. Bu ma’lumotlar tez orada ijodiy san’at pedagogikasining rivojlanishiga turtki berishi shubhasizdir.

Har bir xalqning milliy madaniyati va san’ati ulkan tarbiyaviy salohiyatni o‘z ichiga oladi va jamiyatning ijtimoiy-ma’naviy muhiti sog‘lomligining barqarorligi va taraqqiyparvar rivojlanish sur’atlarini saqlab qolish va ta’minlashning ma’naviy manbai vazifasini bajaradi. Yosh avlodning ijtimoiylashuvi jarayonida milliy madaniy, badiiy-estetik tajriba xalqning ushbu jabhalardagi bilimi, badiiy saviyasi, munosabatlari, xulq normalari, mehnati, madaniy va ma’naviy qadriyatlari tarzida o‘zlashtiriladi. Bu esa o‘z navbatida muttasil o‘zgaruvchi, yangilanib boruvchi jamiyatda yoshlarning muvaffaqiyatli ma’naviy moslashuvini ta’minlaydi.

San’at, jismoniy mehnat va ilm-fan dunyoni o‘zlashtirishning turli usullari va ularning integratsiyasi dunyoning turli madaniyatlardan iborat ko‘p o‘lchovli manzarasini, uning umuminsoniy uyg‘unligini ta’minlaydi. Bu esa shaxsning ma’naviy-axloqiy asoslarini, uning badiiy-estetik tasavvurlarini yanada samaraliroq shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qilishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, oliy ta’lim muassasalari, ularning modernizatsiyalashuv jarayonlarida integrativ jarayonlar yaqqol ko‘zga tashlanadi va zamonamizning global muammolarini hal qilish, madaniyat va san’atni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan integrativ dasturlar ishlab chiqiladi.

Mehnat, ta’lim, san’at, madaniyat va inson ma’naviyati, ruhiyati o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ana shu bog‘lanishlarni hisobga olgan holda pedagogika fanida san’at, mehnat va psixologik-pedagogik bilimlarning sintezi sifatida yangi yo‘nalish - artpedagogika paydo bo‘ldi.

Bugungi kunda "artpedagogika" tushunchasini tushunish, talqin qilish va qo‘llashda pedagogik adabiyotlarda tadqiqotchilar tomonidan turli yondoshuvlar kuzatiladi. Pedagogika fanida zamonaviy yoshlarni maktab, oliy ta’lim muassasalarida xalq va professional san’atga asoslangan badiiy texnologiyalardan foydalanib o‘qitish uchun maxsus pedagogik shart-sharoitlar yaratishga bag‘ishlangan maxsus tadqiqotlar yo‘q edi. Jumladan, O‘zbekiston umumiy o‘rta va oliy ta’lim tizimlarining tahlili ham o‘quvchi va talabalar ta’lim-tarbiyasi, ma’naviy-ma’rifiy ishlarning mavjud amaliyoti tahlili bu sohada ilmiy-pedagogik tavsiyalarga ehtiyoj katta ekanligini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimini modernizatsiyalashning artpedagogik asoslarini nazariy tadqiq qilish natijasida artpedagogikaning xorijiy tajribasi misolida ta’limning barcha yo‘nalishlari jarayonida san’at elementlarini integrativ qo‘llashning ilmiy-amaliy negizlari aniqlandi. Jumladan, Evropa Ittifoqi mamlakatlari, AQShda artpedagogika san’atshunoslik, san’at psixologiyasi, mexnat psixologiyasi bilan

chambarchas bog‘liq bo‘lgan yangi, taraqqiyparvar soha sifatida shakllanib bormoqda. Fanning bu sohalaridagi bilimlar san’atning rivojlanish qonuniyatlari, uning shaxs va jamiyat ijtimoiy va ma’naviy hayotidagi o‘rni haqida komplekks tasavvurni hosil qiladi. Bu esa san’atning ta’limiy, tarbiyaviy, bilish va regulyativ funksiyalari mohiyatini tushunish uchun zarurdir. Chunki ushbu poydevorsiz san’atning pedagogik salohiyatini anglash va undan oliy ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayonida samarali foydalanish nazariyasini ishlab chiqish mumkin emas. Artpedagogika bilan umumiy va ijtimoiy pedagogika, shuningdek, xususiy metodikalar orasida yaqin aloqalar mavjud. Bu borada Los-Anjelesdagi Kaliforniya universitetining tadqiqotchilari 25000 dan ortiq o‘quvchi-yoshlarning federal ma’lumotlar bazasidan foydalangan xolda 2007 yilda AQShda o‘tkazgan milliy tadqiqotida san’at sohasidagi bilimlarga ega bo‘lmagan talabalarga qaraganda san’at asarlari, ularning turlari, mazmuni haqida bilimlarga ega talabalar standart testlarni yaxshiroq echish qobiliyatiga ega ekanliklarini aniqladilar. Bundan tashqari, san’atga qiziqqan yoshlar tomonidan televizion dasturlarni tomosha qilish uchun kamroq vaqt sarflanishi, ularning tengdoshlariga nisbatan ancha ijtimoiy faol bo‘lishlari va ularning bilim olishga qiziqishlari ham kuchliroq bo‘lishi qayd qilingan[7].

Aydaho gubernatori Merilin Xovard matematika va musiqa o‘qituvchilari o‘rtasidagi hamkorlik eng samarali darajada ekanligini ta’kidlaydi[8]. U ta’kidlagan bir misolda texnologiya o‘qituvchisi va chizmachilik o‘qituvchisi talabalarga matematik loyihalashtirishni qo‘llashda bir-birlari bilan hamkorlik qilishlari kerakligi aytiladi. Buning uchun o‘qituvchilar talabalarga ushbu aloqalarni aniq ko‘rsatish uchun badiiy, estetik tushunchalarni "matematik tilda" tushuntirib bera olishlari kerak.

Bu o‘zaro aloqadorlik kognitivist o‘qituvchi-pedagoglarni bundan bir asr ilgari qiziqtira boshlagan edi. San’at ular tomonidan ma’rifat vositasi (g‘oyalarni uzatish) va ta’lim vositasi (bilimlarni uzatish, fikrlash va umumlashtirish ko‘nikmalari, qarashlar tizimlarini tushuntirish) sifatida ko‘riladi. San’atning bilish funksiyasining salohiyati hali juda kam o‘rganilgan. Shu bilan birga, ma’lumki, san’at tilida uzatiladigan axborot, odatda, yanada qulay va hazm qilish osonroq bo‘ladi. San’at his-tuyg‘u va tafakkur tarziga kompleks tarzda, ya’ni ham aqlga, ham qalbga parallel ta’sir ko‘rsatadi.

Ingliz antropologi J.Garrisonning fikricha, badiiy ijodning tarbiyaviy funksiyalari uning ijtimoiy ahamiyatining eng muhim jihatlaridan biridir. San’atning katarsis (poklanish) va kompensator (ma’naviy uyg‘unlikka erishishga yordam beruvchi) funksiyalari shaxsni shakllantiruvchi eng muhim omillardir.

San’at bizni insoniyatning saralangan, sayqal berilgan, umumlashtirilgan va sermazmun tajribalari bilan qurollantirish bilan birga, bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash uchun vaqtimizni tejaydi, shaxsiy tajribamizni o‘zgalar tajribasi bilan boyitish imkoniyatini beradi. San’atning ta’siri shaxsni ijtimoiylashtirishga va o‘z-o‘zini qadrlashga qaratilganligi tufayli insonga o‘z nuqtai nazarlarini va qadriyatlari ierarxiyasini, mazmunini va yo‘nalishlarini rivojlantirishga imkoniyat yaratadi.

Badiiy axborotning o‘ziga xosligi klassik axborot tizimi bo‘lgan san’atning kommunikativ funksiyasini amalga oshirish mexanizmida namoyon bo‘lib, uning tarkibiga axborot manbai (asar), axborot kanali (tasviriy va ifoda vositalari) va resipient (idrok predmeti) kiradi. Shu sababli tadqiqotchilar ushbu murakkab va nozik aloqalar jarayonida yoshlarning bilim va ko‘nikmalarni egallashidagi murakkab jarayonlarini o‘rganishda davom etmoqdalar.

Shuni ta’kidlash lozimki, bozor iqtisodiyotining kengayish jarayonlari voyaga etayotgan yoshlarni mehnat va kasb-hunarga tayyorlashga bo‘lgan talablarning ortishiga olib keldi. Shu bilan birga oliy ta’lim va uni tashkil etishning eskirib qolgan shakl va usullarini qo‘llash, ko‘pchilik hollarda ma’ruza, seminar, amaliy mashg‘ulotlarda qo‘llanilayotgan eski metod, vosita va manbalarga tayanish, pedagogik jarayonni eskirib qolgan g‘oyalar asosida tashkil qilish hozirgi, tobora modernizatsiyalashayotgan zamon talablariga umuman to‘g‘ri kelmaydi. Zero bunday konservativ yondoshuv natijasida moddiy mahsulot ishlab chiqarishga bo‘lajak ishlab-chiqaruvchilarni tayyorlashning ijtimoiy-iqtisodiy talablari bilan oliy ta’lim muassasalari talabalarining kasbiy-ma’naviy kompetensiyalari, imkoniyatlari o‘rtasida bo‘shliq paydo bo‘ladi. Bu esa tobora kuchayib

boruvchi muayyan pedagogik ziddiyatlar yoshlarning kelajagiga ta’sir ko‘rsatuvchi salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Jumladan:

- talabalarning eskicha, zerikarli, ibtidoiy sharoitlar bilan bog‘liq tashkil qilinuvchi ishlarni bajarishni hohlamasliklari;

- dangasalik va jismoniy mehnatni mensimaslik;

- beparvolik va tartibsizlik, mehnat unumdorligi pastligi tufayli mehnatdan, kasbidan begonalashuvni keltirib chiqaradi.

Yuqoridagi salbiy oqibatlarni yoshlarnining ijodiy qobiliyatlari va moyilliklarini rivojlantirish bilan bog‘liq yuqori uyushgan, ijtimoiy foydali, samarali, qiziqarli ishlarga jalb qilish orqali bartaraf etish mumkin. Zamonaviy o‘quv maskanlarida yoshlarni bo‘lajak mehnat faoliyatlari bilan bog‘lab o‘qitish va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishning eng yaxshi mexanizmi bu artpedagogikadir.

Artpedagogika - talaba shaxsiga samarali ta’sir ko‘rsatish maqsadida ta’lim jarayonida san’atning turli janr va turlarini integrativ qo‘llashga asoslangan ilmiy-pedagogik yo‘nalishdir. Masalan, ta’lim maskanida xalq dekorativ-amaliy san’atining turli elementlaridan keng foydalanish sharoitida badiiy obrazlarni hissiy idrok etish, ularni ko‘rgazmali va obrazli tasavvur qilish, san’atda jamlangan tajribalarni maxsus pedagogik texnologiyalar asosida shaxsiy o‘zlashtirish kabi psixologik-pedagogik jarayonlar faollashadi.

Adabiyotlar

1. Копытин А. И. Системная арт-терапия. СПб: Изд-во «Питер», 2001. 224 с. Таранова А.Е. Социокультурные механизмы ценностной легитимации девиантного поведения молодежи: Дис. ... канд. социол. наук: 22.00.06. - Белгород, 2007. с-99.
2. Сеген Э. Воспитание, гигиена и нравственное лечение умственно ненормалных детей. - СПб., 1903. - 260 с., Pierre Rijlant. *Jean Demoor,* Institut Solvay de Physiologie, 1941. Homaïde A. La méthode Decroly. 8 éd. Neuchâtel, 1976; Besse J.-M. O.Decroly, psychologue et educateur. Toulouse, 1982; Decroly et son œuvres. Bibliographie, P., 1972.
3. Воображение и творчество в детском возрасте: Психол. очерк. - 2-е изд. - Москва: Просвещение, 1967. - 93 с.Граборов А.Н.Основы олигофренопедагогики: Учеб. пособие /Авт.-сост. В. Г. Петрова, Т.В. Шевырева.— М.: Классикс Стил, 2005.
4. Воображение и творчество в детском возрасте: Психол. очерк. - 2-е изд. - Москва: Просвещение, 1967. - 93 с. Граборов А. Н. Основы олигофренопедагогики: Учеб. пособие /Авт.-сост. В. Г. Петрова, Т.В. Шевырева. — М.: Классикс Стил, 2005.
5. Екжанова Е.А., Стребелева Е.А. | Примерная адаптированная основная образовательная программа дошколного образования детей с интеллектуалными нарушениями с метод. рекомендациями.М.:2019.-С.246. С. Комарова Изобразителная деятелност. в детском саду. Программа и методические рекомендации. Для занятий с детми 2–7 лет. М., 2006. 280 с.
6. Верховодовой Р.А., Галустова Р.А. Зарубежный опыт арт-педагогики как система интегрированного применения элементов искусства в образовательном процессе / Верховодовой Р.А., Галустова Р.А. // Вестник Адыгейского государственного университета. Серия 3: Педагогика и психология. – 2011. – № 1. – С. 15-18.
7. ЛебедеваЛ.Д. Практика арттерапии. Подходы, диагностика, система занятий. Изд-во Реч, СПБ..:2003. 320 с.
8. Catterall J.S. Involvement in the Arts and Success in Secondary School // Critical Links: Learning in the Arts and Student Achievement and Social Development / ed. by R. Deasy. Washington: DC AEP, 2002.
9. М.Гэллап. Отношение общественности к общественным школам // 39-ый Ежегодный Каппа/ опрос общественного мнения, проводимый институтом Гэллапа. 2007. URL: www.nochildleftbehind.gov.